



## AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 02 | pp. 217-226 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

### SUG'URTA TASHKILOTLARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TASHKIL QILISH ASOSLARI



**Abduraimova Maftunaxon Axmatovna**

Toshkent Davlat iqtisodiyot universiteti,

“Audit” kafedrası dotsenti, PhD

E-mail: maftunaxon.abduraimova@mail.ru

ORCID: 0000-0002-6325-1400

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish tartibi hamda yuritish ketma-ketligiga to'xtalib o'tilgan. Shuningdek, sug'urta tashkilotlarida moliyaviy hisobot shakllarini rasmiylashtirish, buxgalteriya hisobini takomillashtirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Biznes-jarayonlar, sug'urta tashkilotlari daromad va xarajatlari, moliyaviy hisobot shakllari, ichki va tashqi foydalanuvchilar, debitorlar, kreditorlar, brutto va netto stavka.

**Abstract:** This article focuses on the procedure for organizing and the sequence of accounting in insurance organizations. In addition, suggestions and recommendations were developed regarding formalization of financial reporting forms, improvement of accounting in insurance organizations.

**Key words:** Business processes, income and expenses of insurance organizations, reporting forms, internal and external users, debtors, creditors, gross rate and net rate.

#### 1. KIRISH

Jahon mamlakatlarida moliyaviy hisobotlar foydalanuvchilar uchun qulay, ishonchli ma'lumot sifatida tayyorlanadi va taqdim qilinadi. Xalqaro standartlar talablari butun dunyoda bir xil talqin qilinsada, jahon mamlakatlari bo'ylab turlicha talablar va turli foydalanuvchining ehtiyojlarini hisobga olgan holda moliyaviy hisobotlar tuzilishi mumkin.

Sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil qilishda, avvalo, sug'urta jarayonlarini to'g'ri rejalashtirish hamda daromad va xarajatlarning asosligini ta'minlashda buxgalteriya prinsiplariga rioya etish lozim. Shu bilan bir qatorda, Qonunning 3-moddasida keltirib o'tilganidek, uzluksizlik, ishonchlilik, ko'rsatkichlarning qiyoslanuvchanligi asosida har bir faoliyatni yuritish talab etiladi.<sup>1</sup>

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda buxgalteriya hisobini tashkil qilish tartibi “Buxgalteriya hisobi to'g'risida”gi Qonunning 4-moddasida belgilab berilgan: “Buxgalteriya hisobi barcha xo'jalik operatsiyalarini yaxlit, uzluksiz, hujjatlar asosida

<sup>1</sup> Buxgalteriya hisobi to'g'risida (yangi tahriri), O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Toshkent sh., 2016 yil 13 aprel, O'RQ-404-son. 3-modda.

hisobga olish yo'li bilan buxgalteriya axborotini yig'ish, qayd etish va umumlashtirishning tartibga solingan tizimidan, shuningdek uning asosida moliyaviy va boshqa hisobotni tuzishdan iboratdir.

Buxgalteriya hisobi xo'jalik operatsiyasini buxgalteriya hisobining kamida ikkita schyotida bir vaqtda va o'zaro bog'liq holda pulda baholab aks ettirish yo'li bilan ikkiyoqlama yozuv usulida yuritiladi".<sup>2</sup>


Sug'urta tashkilotlarida ham, o'z navbatida, buxgalteriya hisobini yuritish tartibi normativ-huquqiy hujjatlar talablari asosida amalga oshiriladi.

"Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonunda ham sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobining o'ziga xos xususiyatlari keltirilib, quyidagilar belgilangan: "Sug'urtalovchilar (qayta sug'urtalovchilar), sug'urta brokerlari va qayta sug'urta brokerlari vakolatli davlat organi tomonidan belgilanadigan o'ziga xos xususiyatlarni hisobga olgan holda, qonunchilikka muvofiq buxgalteriya hisobini yuritadi".<sup>3</sup>

## 2. Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Sug'urta tashkilotlarida sintetik hisob qonunchilikda belgilangan tartibda buxgalteriya hisobi ob'ektlari haqidagi ma'lumotlarni muayyan iqtisodiy belgilar bo'yicha umumlashtirish yo'li bilan yuritiladi. Analitik hisob esa buxgalteriya hisobi ob'ektlari haqida batafsil buxgalteriya axborotini shakllantirish maqsadida xo'jalik yurituvchi sub'ekt tomonidan mustaqil ravishda yuritiladi.

Tashkiliy tuzilmadan kelib chiqib, tashkilotda quyida keltirilgan tartibdan biri asosida buxgalteriya hisobi yuritilishi mumkin (1-rasm).



### 1-rasm. Sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobini tashkil qilish tartibi<sup>4</sup>.

"Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Qonun va "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi


<sup>2</sup> Buxgalteriya hisobi to'g'risida(yangi tahriri), O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Toshkent sh., 2016 yil 13 aprel, O'RQ-404-son. 4-modda.

<sup>3</sup> Sug'urta faoliyati to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Toshkent sh., 2021 yil 23 noyabr, O'RQ-730-son

<sup>4</sup> "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

Qonun hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq, sug'urta tashkilotlari moliyaviy hisobotlarini tayyorlashlari va tegishli organlarga taqdim etishlari shart hisoblanadi. Sug'urta tashkilotlarining yuridik maqomi o'zgargan taqdirda ham, ya'ni tashkilotlarning o'zaro qo'shilishi, ajralib chiqishi, to'lovga layoqatsizligi yo'qolganida, tugatilish holatlarida ham moliyaviy hisobotlar rasmiylashtirib taqdim etilishi kerak. Umuman olganda, har qanday tashkilot, muassasa yoki kompaniyada buxgalteriya hisobi yuritilishi bu ob'ektda sodir bo'lgan biznes jarayonlar to'g'risida aniq ma'lumotlarni shakllantirish imkonini beradi.

Sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritishdan asosiy maqsad buxgalteriya hisobini tashkil etish, yuritish va hisobotni tuzish sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir. Sug'urta tashkiloti moliyaviy hisobotidan foydalanuvchi manfaatdor tomonlar 2-rasmda keltirilgan.



## 2-rasm. Sug'urta tashkilotlari moliyaviy hisobotidan manfaatdor tomonlar<sup>5</sup>.

Xo'jalik yurituvchi sub'ektlarda buxgalteriya hisobini tashkil qilish yuzasidan ko'pgina olimlar tadqiqot ishlarini amalga oshirishgan va o'zlarining qarashlarini berib o'tishgan.

F.T.Abduvaxidov va boshqalarning keltirishicha, «buxgalteriya hisobi faoliyat ko'rsatayotgan sub'ektning mulki, majburiyatlari, xo'jalik operatsiyalari va ularning harakatini yoppasiga hamda uzluksiz hujjatlashtirish yo'li bilan tartibli yig'ish, nazorat qilish, o'lchash, ro'yxatga olish, pul o'lchovida ishlov berish tizimidir» [3].

B.A.Xasanov boshchiligidagi iqtisodchi olimlar esa, xo'jalik hisobi va buxgalteriya hisobini tushuntirib quyidagicha ta'rif berganlar:

«Xo'jalik hisobi – xo'jalik yurituvchi sub'ektni boshqarishda foydalaniladigan axborot tizimidan iborat bo'lib, unda korxonada sodir bo'ladigan barcha

<sup>5</sup> Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

jarayonlar va hisob ob'ektlarining holati to'g'risidagi miqdor va sifat ko'rsatkichlari haqidagi axborotlar ma'lum qoidalar va standartlar bo'yicha ularni boshqarish uchun ilmiy asoslangan qoidalarga muvofiq qayd qilinadi, o'lchanadi, ishlov beriladi, to'planadi va guruhlanadi.

Buxgalteriya hisobi esa, korxonaning xo'jalik faoliyatini va qaror qabul qiluvchi shaxslarni bog'lovchi bo'g'in hisoblanadi. Xo'jalik faoliyatiga doir ma'lumotlar buxgalteriya hisobi tizimiga kirish, qaror qabul qiluvchi shaxslar uchun zarur axborotlar esa undan chiqish hisoblanadi» [4].

Sh.T.Ergasheva va R.B.Xasanovanning fikricha, «buxgalteriya hisobi xizmatining natijaviy ko'rsatkichi moliyaviy hisobotlar bo'lib, uning asosiy maqsadi va vazifalari investitsiyalar kiritish va kreditlar berish to'g'risida qarorlar qabul qilishda zarur, hal qiluvchi va foydali bo'lishi, undan foydalanuvchilarga pul mablag'larining kelgusidagi harakatini baholashga yordam berishi, mulkiy, moddiy, mehnat va moliyaviy resurslardagi o'zgarishlarni haqqoniy va ob'ektiv aks ettirilgan axborotni taqdim etishdan iborat» [5].

O.N.Volkovanning ta'kidlashicha, «buxgalteriya hisobining eng asosiy o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, u asosan soliq solish maqsadlarini ko'zlaydi. Aynan soliq organlari hisob yuritishning metodologik xususiyatlarini to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita shakllantiriladi. Hisob yuritishning yaqqol soliqqa yo'naltirilganligi tufayli, Portugaliyada buxgalteriya tamoyillari faqat qonun bilan tasdiqlangan shaklga ega bo'lgan hollardagina buxgalteriya xizmatlari xodimlari amal qilinadigan qo'llanmaga aylanadi» [6].

I.V.Kobishanning ta'kidlashicha, «tashkilotlarning buxgalteriya hisobi – moliyaviy hisobotlarda haqiqiy ahvol haqida aniqroq mulohaza yuritish imkonini beruvchi qo'shimcha ma'lumotlarni o'z ichiga oladi va quyidagi bosqichlardan iborat bo'ladi.

1. Maxsus yordamchi kitoblar va analitik schyotlarni birlamchi hujjatlar assoida yuritish;

2. Yordamchi kitoblar yakunlarini jamlama kitobga va so'ngra oyning oxirida sintetik schyotlar Bosh kitobiga ko'chirish;

3. Analitik schyotlar bo'yicha aylanma qaydnomalarini tuzish;

4. Sinov balansini tuzish;

5. Sintetik va analitik schyotlar, yordamchi va jamlama kitoblar bo'yicha yozuvlar yakunlarini taqqoslash yo'li bilan yozuvlarning to'g'riligini tekshirish» [7].

Sug'urta tashkilotining moliyaviy hisobotlari o'z ichiga buxgalteriya balansi (1-shakl), moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot (2-shakl), pul oqimlari haqidagi hisobot (4-shakl), xususiy kapital to'g'risidagi hisobotni (5-shakl) o'z ichiga oladi. Ushbu hisobotlarga qo'shimcha holda «Debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risida ma'lumot» ham topshiriladi. Shuningdek, moliyaviy hisobotga izohlar, hisob-kitoblar va tushuntirishlar ilova qilinadi. Xalqaro standartlar bo'yicha moliyaviy hisobotni tuzishga doir talablar moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida belgilanadi va ular quyidagilardan iborat:

«aktivlar, xususiy kapital va majburiyatlar tan olinadigan moliyaviy holat to'g'risidagi hisobotda;

daromadlar va xarajatlar tan olinadigan yalpi daromad to'g'risidagi hisobotda.

Quyidagilar to'g'risidagi axborotlar moliyaviy hisobotlar va izohlarda yoritiladi:

tan olingan aktivlar, majburiyatlar, xususiy kapital, daromadlar va xarajatlar, shu jumladan ularning xarakteri va ushbu tan olingan aktivlar va majburiyatlardan yuzaga keladigan risklar to'g'risida ma'lumot;

tan olinmagan aktivlar va majburiyatlar, shu jumladan ularning xarakteri va ulardan yuzaga keladigan risklar to'g'risida ma'lumot;

pul oqimlari;

tashkilotning xususiy kapitaliga nisbatan talab qilish huquqlari egalarining badallari va ushbu shaxslarga taqsimlashlar;


taqdim etilgan yoki yoritib berilgan summalarni baholashda foydalanilgan usullar, farazlar va mulohazalar, shuningdek ushbu usullar, farazlar va mulohazalardagi o'zgarishlar» [8].

### 3. Tahlil va natijalar

Sug'urta tashkilotining buxgalteriya balansida sug'urtalovchining asosiy vositalari va ularning boshlang'ich, qoldiq, eskirish summalari, nomoddiy aktivlar va ularning boshlang'ich, qoldiq, eskirish summalari, uzoq muddatli investitsiyalar, joriy aktivlar, o'z mablag'lari manbalari, sug'urta zaxiralari va majburiyatlarga oid axborotlar keltirib o'tiladi. Umuman olganda, sug'urta tashkilotlarining buxgalteriya balansi muhim ahamiyatga ega. Chunki sug'urta tashkilotlarida yuzaga keladigan ayrim balans moddalaridagi o'zgarishlar biznes-jarayonlar tufayli yuzaga keladigan o'zgarishlarni ifodalaydi. Sug'urta tashkilotlari aktivlari tarkibidagi eng katta ob'ektlar asosiy va aylanma mablag'lar ulushiga, majburiyatlari esa, joriy majburiyatlar va sug'urta operatsiyalari bo'yicha majburiyatlar hissasiga to'g'ri keladi. Sug'urta tashkiloti balans ma'lumotlari boshqa faoliyat turi bilan solishtirganda, balansning muhim xususiyatini o'zida tavsiflaydi. Sababi, aktivlarga investitsiyalarning ulushi katta bo'lib, sug'urta tashkilotlari, o'z navbatida, moliya bozorining muhim investorlari hisoblanadi. Sug'urta tashkiloti mijozlari oldidagi majburiyatlari esa, majburiyatlar tomonida aks ettirilib, ular ishlanmagan mukofot deb yuritiladi, sababi yig'ilgan mukofotning kelgusi hisobot davrida daromadga aylanadigan qismi va to'lanmagan da'volar (joriy davrda yuzaga kelgan da'volar bo'yicha taxminiy xarajatlar) kabi balans moddalari orqali yuzaga kelishi mumkin. Shuningdek, sug'urta tashkilotlarida majburiyatlar ayrim moddalarining alohida tarzda belgilanishini ta'kidlash muhimdir. Bu ayniqsa, hayotni sug'urtalash bo'yicha yuzaga keladigan zaxiraga, ya'ni uzoq muddatli zaxiralarga, ishlanmagan mukofotlar va o'z tasdig'ini topgan da'volarga nisbatan tegishli bo'ladi.

Nomoddiy aktivlarga patentlar, litsenziyalar va shunga o'xshash huquqlar kiradi. Bu orqali sug'urta tashkilotining obro'siga alohida e'tibor berish kerak. Sababi, uning brendi orqali jahon bozoriga integratsiya qilish, yaxshi daromad olish imkoniyatini ta'minlaydigan nomoddiy mulk turini ifodalashi kerak, shuningdek, tashkilotning nomi muayyan sabablarga bog'liq bo'ladi, ya'ni korporativ boshqaruvning yaxshi yo'lga qo'yilganligi, mijozlar bilan o'rnatilgan munosabatlar, ustunlik, sifatli ishlash mexanizmining tashkil qilinishi (bu odatda mijozlarga ko'rsatiladigan xizmatga qaraladi, ya'ni, raqamlashtirish orqali sug'urta mahsulotlarini mijozlarga yetkazish va elektron polislarni taqdim qilish jarayonlari, sug'urta da'volari va to'lovlarini ham qisqa muddatlarda onlayn rasmiylashtirishni o'z ichiga oladi), sof raqobat, yaxshi biznes amaliyotining yo'lga qo'yilganligi, qulay sharoitlar mavjudligi mijozlarni har tomonlama

o'ziga jalb qiladi. Sug'urta tashkilotida nomoddiy aktivlarning yuqoridagi xususiyati investor tomonidan sug'urta tashkilotini sotib olganida va bozor qiymatidan yuqori narxni to'laganda hisobga olinishi mumkin. Umuman olganda, sug'urta tashkilotining buxgalteriya balansi hamma uchun kerakli ma'lumotlarni taqdim etish bilan bir qatorda, moliyaviy holatini ham aks ettirib beradi (3-rasm).



3-rasm. Sug'urta tashkilotlari buxgalteriya balansining tarkibi<sup>6</sup>.

Sug'urta tashkilotining yakuniy biznes samaradorligini baholash jarayoni sug'urta faoliyatining daromad va xarajati sifatida aks ettiriladigan operatsiyalarni

<sup>6</sup> Tadqiqotlar natijasida muallif tomonidan ishlab chiqilgan.

shakllantirishdan iborat. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, agar sug'urta tashkilotining daromad va xarajatlari o'rtasida muvozanatga erishilsa va daromad ulushi xarajat qismdan ortiq bo'lsa, tashkilot foyda bilan chiqqan deb aytish mumkin. Aks holat bo'lsa, zarar sifatida moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda qayd etiladi. Agar sug'urta tashkilotining daromadlari va xarajatlari teng bo'lsa, biror muddat foyda ko'rmagan va xarajatlar daromaddan yuqori bo'lsa, rentabellik ko'rsatkichlari salbiy bo'lishi mumkinligidan hamda faoliyat xavf ostida ekanligidan dalolat beradi. Sug'urta tashkilotining daromadlari, asosan, sug'urta operatsiyalari bo'yicha daromadlar (bunda sug'urta tashkilotining sof tushumi), sug'urta faoliyati bo'yicha boshqa daromadlar (sug'urta zaxirasi mablag'larini investitsiyalash, subrogatsiya, qayta sug'urtalash bo'yicha mukofotlar bo'yicha foizlar), boshqa faoliyatdan olingan daromadlar (aktivlarni sotish, mol-mulkini ijaraga berish) kiradi. Bundan tashqari, ularni sug'urta xizmatlarini ko'rsatishdan daromadlar, to'g'ridan-to'g'ri sug'urta qilish va birgalikda sug'urta qilish bo'yicha (birgalikda sug'urta qilish shartnomasida sug'urtalovchining belgilangan ulushi qismida) sug'urta mukofotlari, qayta sug'urta qilishga qabul qilingan shartnomalar bo'yicha sug'urta mukofotlari, xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasidagi qayta sug'urtalovchilarning ulushini hisobga olgan holda, xabar qilingan, lekin bartaraf etilmagan zararlar zaxirasi o'zgarishining natijasi, vositachilik xizmatini ko'rsatishdan daromadlar, asosiy faoliyatning boshqa daromadlari, moliyaviy faoliyatning daromadlari sifatida ham o'rganishimiz mumkin. Sug'urta tashkilotlarining foizli daromadi sug'urtalovchining ortiqcha mavjud bo'lgan mablag'larini investitsiya qilishning turli shakllari asosida foizlarni va to'lanmagan sug'urta mukofotlari bo'yicha foizlarni o'z ichiga oladi.

I.X. Abduraxmonovning ta'kidlashicha, sug'urta tashkilotining daromadlari quyidagi tarkibdan iborat:

«Sug'urtani amalga oshirish, qonunchilikda man etilmagan boshqa faoliyat bilan shug'ullanish natijasida hisob raqamiga kelib tushgan pul mablag'larining jami uning daromadi hisoblanadi.

Sug'urta tashkiloti daromadlarini guruhlashning turli variantlari mavjud. Ular ichida manbalarga ko'ra, olingan daromadlarni uch guruhga bo'lishga asoslangan variant keng qo'llaniladi:

A) sug'urta faoliyatidan olingan daromadlar. Sug'urta operatsiyalarini amalga oshirishdan olingan daromadlar sug'urtachi daromadlarining asosiy manbai hisoblanadi. Bu daromadlarning asosiy qismi sug'urta shartnomalari bo'yicha undirilgan mukofotlar hisobiga shakllantiriladi;

B) investitsiya joylashtiriluvidan olingan daromadlar. Sug'urta tashkilotining ushbu faoliyati to'g'ridan-to'g'ri sug'urta faoliyati bilan bog'liq emas. Sug'urtachining investitsiya joylashtirish imkoniyati sug'urta mukofotlari hisobidan yuzaga keladi;

D) sug'urta tashkilotining boshqa daromadlari. Sug'urtachi sug'urta operatsiyalarini amalga oshirishi va investitsiya joylashtiriluvidan tashqari boshqa faoliyatdan ham daromad olishi mumkin.

Bunday daromadning manbalari:

- depo mukofotlar hisobiga o'tkazilgan foiz summalari;
- regress tartibida olingan summalar;



- asosiy fondlar, moddiy boyliklar va boshqa aktivlarni sotishdan olingan foyda;
- ijarachilik faoliyatidan olingan daromadlar;
- sug'urta zaxiralarining qaytim summalari;
- o'qitish, maslahat ishlarini olib borish bo'yicha undirilgan to'lovlar hisoblanadi»

[9].

Sug'urta tashkilotlarining xarajatlari esa, qayta sug'urta mukofotlari va zararli hodisalar yuzaga kelishining oldini oladigan chora-tadbirlar uchun ajratmalar hisoblanadi. Ularni qayta sug'urta qilishga berilgan shartnomalar bo'yicha sug'urta mukofotlari, ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasidagi qayta sug'urtalovchilarning ulushini hisobga olgan holdagi, ishlab topilmagan mukofotlar zaxirasi o'zgarishining natijasi, sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasidagi qayta sug'urtalovchilarning ulushini hisobga olgan holdagi, sodir bo'lgan, lekin xabar qilinmagan zararlar zaxirasi o'zgarishining natijasi, boshqa texnik zaxiralardagi qayta sug'urtalovchilarning ulushini hisobga olgan holdagi, tegishli zaxiralar (qurilish-montaj risklari, fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtalash, ish beruvchining fuqarolik javobgarligini majburiy sug'urtasi, tashuvchining fuqarolik javobgarligining majburiy sug'urtasi o'zgarishining natijasi), ko'rsatilgan sug'urta xizmatlarining tannarxi, davr xarajatlari, asosiy faoliyatning xarajatlari, moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar, valyuta kursi farqlaridan zararlar, umumxo'jalik faoliyatining zarari, foyda solig'ini to'lagunga qadar zararlarni kiritishimiz mumkin.

Sug'urta tashkilotlarida biznes samaradorligini belgilaydigan omillardan biri bu daromad hisoblanadi, shunday ekan, sug'urta tashkilotlari doimiy ravishda daromadlarini oshirish choralari ko'rib borishlari lozim. Masalan, ma'lum bir sug'urta mahsulotlari uchun sug'urta mukofotlari narxini tushirish, da'volarsiz operatsiyalarni rasmiylashtirish, sug'urta xarajatlarini tejash, qayta sug'urtalashga o'tkazilishi zarur bo'lgan risklarni yanada aniqroq baholash orqali amalga oshiriladi.

Sug'urta tashkilotlari tomonidan tuzilgan pul oqimlari to'g'risidagi hisobot moliyaviy hisobotning asosiy shakllaridan biri hisoblanadi. Ushbu hisobotda, sug'urta tashkilotining ma'lum bir davrdagi asosiy, moliyaviy va investitsiya faoliyati natijasida pul mablag'larining kelib tushishi va holatidagi o'zgarishlarni ko'rsatadi. Umuman olganda, mazkur hisobot pul oqimining harakatini ifodalab beradi. Ushbu hisobot sug'urta biznesining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda va tashkilotning moliyaviy holati to'g'risida yaxshiroq tasavvur hosil qilish uchun umumiy pul oqimini kuzatish, sug'urta majburiyatlari va ularning to'lov muddatini, shuningdek investitsiyalarni hisobga olishlari uchun kerak.

Sug'urta tashkilotida buxgalteriya hisobini yuritish orqali ularning moliyaviy holatini tahlil qilish imkoniyati yuzaga keladi.

#### 4. Xulosa va takliflar

Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, sug'urta tashkilotlari risklarni tahlil qilish, o'rganish va baholash imkonini beruvchi mahsulot hamda xizmatlarni taqdim etadi. Sug'urta tashkilotlari moliya bozori ishtirokchilari ichida muhim ahamiyatga ega, chunki, ular kapital bozoriga innovatsion yondoshuvlarni olib keladi, moliyaviy risklarni xedjirleydi, shu bilan bir qatorda, iqtisodiy sub'ektlar va sug'urta tashkilotlari o'rtasida o'zaro hamkorlikni ta'minlab, yangi sug'urta mahsulotlarini ishlab chiqishga yordam



beradi. Shunday ekan, sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobini o'zaro bog'langan jarayonlar va ketma-ketlik asosida tashkil qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu, o'z navbatida, 5 ta bosqichda amalga oshirilsa, samarali va shaffof bo'ladi:

1-bosqichda sug'urta tashkilotlarining hisob siyosati ishlab chiqiladi;

2-bosqichda sug'urta tashkilotlarida buxgalteriya hisobini yuritish bo'yicha ma'lumotlar aniqlanadi va dastlabki ma'lumotlar bazaga kiritiladi;

3-bosqichda ma'lumotlarga ishlov berilib, birlamchi balans tuziladi;

4-bosqichda buxgalteriya hisobotlari tayyorlanadi va tegishli sub'ektlarga taqdim qilinadi;

5-bosqichda moliyaviy hisobot sanasidan keyin sodir bo'ladigan o'zgarishlar hisobga olinadi.

Sug'urta tashkilotida buxgalteriya hisobini yuritish va hisobot shakllarini rasmiylashtirish uchun dastavval, uning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, hisob siyosati, buxgalteriya hisobining tashkiliy shakli, buxgalteriya hisobining usullari, buxgalteriya ma'lumotlarini qayta ishlash, boshqaruv hisobi, hisoboti va nazorati tizimini yuritish kerak.

Sug'urta tashkilotining o'ziga xos xususiyatlarini quyidagi tarkibda keltirishimiz mumkin:

1. Sug'urta faoliyatida tezkor ma'lumot almashinishning mavjud emasligi. Bu bir necha asosiy jihatlardan iborat bo'lib, sug'urta tashkilotlarida amalga oshiriladigan operatsiyalarni ko'rsatadi. Misol tariqasida keltiradigan bo'lsak, sug'urta to'lovlari, sug'urta polislari, sug'urta brokerlari va shu kabi boshqa operatorlar orasidagi amaliyotni ko'rsatish, ma'lumotlarni yig'ish, to'plash va saqlash, sug'urta shartnomalarini tuzish va shu kabi operativ vazifalarni kiritish mumkin. "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Qonunga asosan, sug'urta tashkilotlari tomonidan prudensial normativlarga hamda ichki ichki nazoratga va tavakkalchiliklarni boshqarish tizimiga doir talablarga rioya etilishi majburiyatini yuklaydigan normalar bo'lishi mumkin;

2. Sug'urtalovchining faoliyat siklida inversiya xususiyati mavjudligi, bunda sug'urta xizmati uchun to'lov xizmat ko'rsatilmasdan oldin amalga oshiriladi va sug'urta hodisasi yuz bersa hamda asosli bo'lganda amalga oshiriladi;

3. Sug'urta tashkilotida ko'rsatkichlarning o'ziga xosligi;

4. Sug'urta mukofotlari jalb qilinganida, undan sug'urta zaxiralarini shakllantirilishning yagona talabi mavjud emasligi va hisoblashishlarda yuzaga keladigan muammolar. Shuningdek, sug'urta tashkilotining buxgalteriya xizmatini tashkil qilishda tarmoqning "Inversiyasi"ni inobatga olib, sug'urta mahsuloti tannarxini hisobga olishda, yagona shartnomalar bo'yicha yoki o'xshash sug'urta mahsulotlari kesimida hisoblab chiqilishi ham yagona belgilangan norma mavjud emasligini ko'rsatadi.

Sug'urta tashkilotlarida sug'urta xizmatlari narxini hisoblashda sug'urta tariflarini ham hisobga olish kerak. Sug'urta tarif stavkalari sug'urta shartnomasi bo'yicha to'lanishi kerak bo'lgan sug'urta mukofoti miqdorini aniqlashda sug'urtalovchi tashkilot tomonidan ishlab chiqiladi va qo'llaniladigan tarif bo'lib hisoblanadi. Ixtiyoriy sug'urta qilish tarmog'i bo'yicha sug'urta tariflari sug'urtalovchi tomonidan mustaqil ravishda hisoblab chiqiladi hamda sug'urta shartnomasida belgilanadi. Majburiy sug'urta tarmog'i bo'yicha esa, tariflar qonun bilan belgilanadi. Sug'urta tashkilotlarida tarif stavkalari aktuar hisob-

kitoblar orqali amalga oshiriladi. Tarif stavkasi har qanday sug'urta turi bo'yicha brutto-stavka deb qaraladi va netto-stavka (sug'urta qoplamasi to'lovlari uchun zaxira summasi) va sug'urtachining faoliyat yuritish xarajatlaridan (odatda u «yuk» deb ataladi) tashkil topgan ikki qismdan iborat bo'ladi. Sug'urta tashkiloti buxgalteriyasida mazkur stavkalarni turi bo'yicha foiz ulushlari belgilab qo'yilgan va bularning asosini ham sug'urta hodisasi yuz berishi ehtimolligini aniqlash orqali muayyan foizlarini shakllantirish maqsadga muvofiq bo'lar edi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. "Buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi Toshkent sh., 2016 yil 13 aprel, O'RQ-404-son.
2. O'zbekiston Respublikasining Qonuni. "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi Toshkent sh., 2021 yil 23 noyabr, O'RQ-730-son
3. Abduvaxidov F., Qo'ziev I., Dadabayev Sh. Buxgalteriya hisobi: Darslik. – Iqtisod-moliya, 2021. – 464 b.
4. Xasanov B., Xashimov A., Muxametov A., Abduvoxidov A. Buxgalteriya hisobi: Darslik. – Iqtisodiyot dunyosi, 2021. – 992 b.
5. Ergasheva Sh., Xasanova R. Chet mamlakatlarda buxgalteriya hisobi. Monografiya. Fan va texnologiya – 2017, 232 b.
6. Волкова О. Бухгалтерский учёт Португалии. Бухгалтерский учёт – 1999. №11. С 97
7. Кобищан И. Бухгалтерский учёт и финансовая отчётность во Франции. Бухгалтерский учёт. – 2004. №14. С 57.
8. "Moliyaviy hisobotlarni taqdim etishning konseptual asosi" Buxgalteriya hisobining xalqaro standartlari kengashi tomonidan 2010 yil sentyabrda e'lon qilingan.
9. Abduraxmonov, I.X. (2019). Теория и практика страхования. Учебник/– Т.:«Iqtisod-moliya, 353-354.

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

